

**MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA
MATEMATIK TUSHUNCHALARNI
SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN METODIK
ISHLARNING MAZMUNI. MAKTABGACHA
TA`LIM MUASSASASI MUDIRASI VA KATTA
TARBIYACHINING O`RNI.**

Kazoqov R.T.

Reja:

1. Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi nuqtai nazaridan olti yoshli bolalar oilada va bolalar bog'chasida maktab ta'limiga tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar.
2. Bolalarning arifmetik masalalarni tushinishining o'ziga xos xususiyati.

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarini hayotga joriy etish keng ko'lamli ish bo'lib, u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Talablarda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun davlat tomonidan zaruriy shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratiladi. Halq ta'limi vazirligi hamda joylardagi ta'lim — tarbiyaga tegishli bo'lgan tashkilotlar va muassasalar talablarni hayotta joriy etish yuzasidan o'z faoliyatini maqsadli yo'nalishda olib boradilar.

Bolalarning bilim, ko`nikma va malakalari har o`quv yilining 9-kunida tayanch dasturda keltirilgan talablar asosida nazorat mashg`ulotlari orqali tekshirib boriladi. 6 — 7 yoshdagi bolalarning maktabga tayyorlik darajasi ushbu davlat talablari, ko`rsatkichlari asosida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va pedagogik-psixologik tashxis markazi mutaxassislari tomonidan tekshiriladi.

Davlat talablari ko`rsatkichlariga erishish «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi» asosida bolalarning ilk va 6 — 7 yoshga etgunga qadar amalga oshiriladi. Bolalarning bilim, ko`nikma va malakalari har o`quv yili yakunida tayanch dasturda keltirilgan talablar asosida nazorat mashg`ulotlari orqali tekshirib boriladi. 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi ushbu

Davlat talablari ko`rsatkichlari asosida tekshiriladi.

Dastur materialini mashg'ulotlarga taqsimlashda bolalarning bilim va ko'nikmalariga ularning tayyorligiga e'tibor berish lozim.

Tarbiyachi o'z nutqiga alohida e'tibor berishi kerak. Mahcys terminlarni to'g'ri qo'llay bilish katta ahamiyatta ega. Masalan: son va raqam tushunchalarini aralashtirib yubormaslik kerak. «qaysi son katta, qaysinisi kichik» deb so'raladi (qaysi raqam katta» - deyish mumkin emas).

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar.

- 1. Kurmakaeva R., A'zamova M., Normatova S., Yusupova M., Elementar matematika rejalari. T. 1992y.**
- 2. Bikbaeva N.U., Ibroximova 3.I., qosimova X.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish, T., 1995.**